


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 297,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-noyabr oylariga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,4 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 2,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 7,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 0,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 5,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



* **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi, %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 40,2 trln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al – 35,6 % ga oshdi, shu bilan birga, ko'mir qazib olish 6,5 % ga, neft - 6,5 % ga, gaz kondensati - 2,0 % ga, chaqir tosh - 16,2 % ga, tabiiy gaz qazib olish 1,1 % ga pasaygan.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan
Ko'mir, ming t.	3 751,3	3 507,8
Neft, ming t.	684,4	640,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	54 924,0	54 301,2
Gaz kondensati, ming t.	1 955,7	1 915,6
Chaqiq tosh, ming t.	1 390,3	1 164,8
Shag'al, ming t.	360,6	489,0

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati



Konchilik

(yanvar-noyabr)




Ishlab chiqaradigan sanoat

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 237,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,7 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,5 % ni (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 25,7 % (27,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 37,6 % (32,8 %) va quyi texnologiyali - 35,2 % (38,5 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 22,4 % (2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi - 21,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 22,2 % (5,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 16,0 % (4,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 16,0 % (6,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 9,7 % (2,8 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2018-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan
Yengil avtomobillar, dona	181 327	253 421
Yuk avtomobillari, dona	3 787	5 056
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	1 326,8	1 350,0
Avtomobil dvigatellari, ming dona	135,7	186,4
Paxta tolasi, ming t.	705,9	412,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	154,3	138,8

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 1,3 m., yengil avtomobillar - 1,4 m., avtomobil dvigatellari - 1,4 m., avtobuslar - 2,1 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,3 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,5 m. ga oshdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida avtobus ishlab chiqarish



2019-yilning yanvar-noyabr oylari davomida Avtobus ishlab chiqarish sanoatida 1 512 dona avtobus ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga oshgan bo'lib, eng yuqori ishlab chiqarish mart oyida kuzatilgan 204 donani tashkil etdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida traktor ishlab chiqarish



Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish sanoatida 186,4 ming dona dvigatellar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,3% ni tashkil etdi hamda, eng yuqori ishlab chiqarish noyabr oyida kuzatildi 25,1 ming dona

2019-yil yanvar- noyabr oylarida yuk avtomobillari ishlab chiqarish



Yuk avtomobillari jami 5 056 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,5% tashkil etdi, hamda eng yuqori ishlab chiqarish noyabr oyida kuzatildi 616 dona.




Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2019-yil yanvar-noyabr oylari davomida 70 222 dona "Nexia T-250" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139,4%), 51 918 dona "Cobalt" (170,7%), 47 940 dona "Damas" (156,1%), 40 392 dona "Gentra" (149,0%), 22 780 dona "Spark" (99,12%), 7 603 dona "Tracker", 6 551 dona "Labo" (97,0%) hamda 5 889 dona "Malibu-2" avtomobillari (146,9%) ishlab chiqarildi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida avtomashinalar ishlab chiqarilishi (dona)



«Spark»




«Lacetti Genra»



«Damas»



«Tracker»



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida avtomashinalar ishlab chiqarilishi (dona)



«Malibu 2»




«Nexia T - 250»



«Cobalt»



«Labo»




2019-yil yanvar noyabr oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish (dona)



Traktorlar jami 1 283 dona ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,1% tashkil etdi, hamda eng yuqori ishlab chiqarish iyun oyida kuzatildi 264 dona.

2019-yil yanvar noyabr oylarida yuk avtomobillari ishlab chiqarish (dona)



Kultivatorlar jami 1 837 dona ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 160,2% tashkil etdi, hamda eng yuqori ishlab chiqarish aprel oyida kuzatildi 325 dona.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t	14 038,7	17 011,2
Portlandsement, ming t	7 627,3	9 008,1
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	9 967,0	10 427,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	985,7	930,8
Avtomobil benzini, ming t	1 053,0	926,2
Traktorlar, dona	2 976	1 283

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib o'tgan yilning shu davriga nisbatan, azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 93,2 %), ammoniy sulfat (109,1 %), kaliy xlorid (110,3 %), ammoniy nitrat (109,3 %), karbamid (113,5 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (121,2 %), kaustik soda(142,7 %) ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan
Elektroenergiya, mln.kVt/s	55 116,6	55 528,4
Issiqlik energiyasi, ming Gkal	24 850,5	23 916,9
Ko'mirni er ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub m	298 316,0	243 288,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 1,6 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,3 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,9 martaga, suvga ishlov

berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 27,4 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 31,6 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 75,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018-yil yanvar-noyabr	2019-yil yanvar-noyabr
Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming t	276,4	153,3
Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, t	3 905,0	6 127,0
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	151,3	199,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 101,4 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 34,1 % ni tashkil etdi.

2018-yilning mos davriga nisbatan 2019-yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, %



2018-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2019-yil yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 68,7% dan 68,5% gacha kamayganligi qayd etildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,6 % ni (2018-yil yanvar-noyabr oylarida 8,0 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018-yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	101 417,5	100,0	115,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 076,9	2,0	107,0
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	24 716,9	24,4	132,9
Buxoro	4 593,1	4,5	108,0
Jizzax	2 031,6	2,0	105,8

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018-yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, %
Qashqadaryo	3 644,6	3,6	113,3
Navoiy	3 032,9	3,0	104,6
Namangan	5 098,2	5,0	112,6
Samarqand	8 644,8	8,5	103,9
Surxondaryo	1 476,7	1,5	111,1
Sirdaryo	2 398,1	2,4	104,4
Toshkent	9 413,9	9,3	105,3
Farg'ona	5 717,6	5,6	109,3
Xorazm	5 118,2	5,0	127,6
Toshkent sh.	21 617,1	21,3	107,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga tog'ri kelib, 23,5%, shuningdek, Toshkent viloyati 14,2% ni, Samarqand viloyati 9,4% ni, Qashqadaryo viloyati 6,6% ni hamda Farg'ona viloyati 6,5% ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'sish su'rati eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatida qayd etildi (123,7%) respublika o'sish su'rati (116,4%) dan yuqori o'sishga erishildi.

Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018-yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi ²⁾	31 934,6	100	116,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 211,8	3,8	107,7
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 768,5	5,5	104,6
Buxoro	1 673,0	5,2	103,4
Jizzax	619,6	1,9	102,0
Qashqadaryo	1 102,9	6,6	111,1
Navoiy	1 175,9	3,7	102,4
Namangan	1 683,1	5,3	123,7
Samarqand	2 998,7	9,4	110,6
Surxondaryo	764,4	2,4	122,6
Sirdaryo	850,0	2,7	102,3
Toshkent	4 519,7	14,2	109,5
Farg'ona	2 063,6	6,5	118,8
Xorazm	1 159,6	3,6	110,8
Toshkent sh.	7 507,1	23,5	111,3

²⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi respubika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga tog'ri kelib, 33,0 %, shuningdek, Toshkent shahri 20,3 % ni, Samarqand viloyati 8,1 % ni, Toshkent viloyati 7,0% ni hamda Xorazm viloyati 5,7% ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'sish su'rati eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati (135,8 %) hamda Xorazm viloyatida (133,6 %) qayd etildi, respubika o'sish su'rati (115,2 %) dan yuqori o'sishga erishildi.

Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018-yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi	69 482,8	100	115,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	865,1	1,2	104,7
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	22 948,4	33,0	135,8
Buxoro	2 920,2	4,2	110,7
Jizzax	1 412,0	2,0	107,6
Qashqadaryo	1 541,7	2,2	116,5
Navoiy	1 857,0	2,7	106,1
Namangan	3 415,1	4,9	107,9
Samarqand	5 646,2	8,1	100,7
Surxondaryo	712,3	1,0	100,9
Sirdaryo	1 548,1	2,2	105,5


	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018-yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, %
Toshkent	4 894,2	7,0	101,7
Farg'ona	3 654,0	5,3	104,6
Xorazm	3 958,7	5,7	133,6
Toshkent sh.	14 110,0	20,3	105,8

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 89,7 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 30,1 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi 27,8 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 72,1 % ni tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi


	2019-yil yanvar-noyabr, mld. so'm	FHI, %
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	297 815,5	106,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11 569,9	104,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	31 168,2	118,5
Buxoro	13 241,8	109,3
Jizzax	4 293,1	104,9
Qashqadaryo	18 524,2	94,3
Navoiy	40 298,1	103,2
Namangan	7 975,9	113,6
Samarqand	14 390,2	106,3
Surxondaryo	3 922,1	108,2
Sirdaryo	6 508,3	101,9
Toshkent	48 322,0	106,8

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

	2019-yil yanvar-noyabr, mlrd. so'm	FHI, %
Farg'ona	17 797,9	104,6
Xorazm	7 947,3	111,5
Toshkent sh.	49 515,4	107,6


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,6 %), Toshkent viloyati (16,2 %), Navoiy (13,5 %), Andijon (10,5 %), Qashqadaryo (6,2 %) va Farg'ona (6,1 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019-yil yanvar-noyabr oylarida 2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %)




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 118,5 %), Xorazm (111,5 %), Toshkent (106,8 %), Namangan (113,6 %), Samarqand (106,3 %), Buxoro (109,3 %) va Farg'ona (104,6 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



2019-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan %



Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 132,9 %), Xorazm (127,6 %), Namangan (112,6 %), Sirdaryo (104,4 %), Buxoro (108,0 %), Farg'ona (109,3 %), Surxondaryo (111,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (107,0 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Andijon viloyatida ishlab chiqarilganligini ta'kidlash lozim (respublika iste'mol tovarlarining 24,4 %), Toshkent shahri (21,3 %), Toshkent (9,3 %) va Samarqand (8,5 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga
to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol
tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
O'zbekiston Respublikasi	8 892,7	3 028,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 154,8	1 104,9
viloyatlar:		
Andijon	10091,7	8002,9
Buxoro	6949,6	2410,6
Jizzax	3148,8	1490,1
Qashqadaryo	5722,3	1125,8
Navoiy	40870,3	3075,9
Namangan	2875,0	1837,7
Samarqand	3759,2	2258,3
Surxondaryo	1513,7	569,9
Sirdaryo	7786,9	2869,2
Toshkent	16582,1	3230,5
Farg'ona	4799,7	1541,9
Xorazm	4305,1	2772,6
Toshkent sh.	19552,8	8536,2

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (40 870,3 ming so'm), Toshkent shahrida (19 552,8 ming so'm), Toshkent (16 582,1 ming so'm) va Andijon (10 091,7 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (8 892,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 3 028,3 ming so'm bo'lgani holda Toshkent shahrida – 8 536,2 ming so'mni, Andijon viloyatida – 8 002,9 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 3 230,5 ming so'mni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 101,6 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Namangan (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 75,4 %), Toshkent shahrida (66,7 %), Jizzax (66,9 %), Samarqand (53,2 %), Surxondaryo (53,6 %), Sirdaryo (48,0 %) va Farg'ona (43,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy (12,8 %) va Qashqadaryo (23,2 %) viloyatlarida, Andijon (22,2 %) va Toshkent (26,5 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (23,2 %) kuzatildi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Respublikada 70,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,9 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,2 %) Toshkent shahriga, 7,6 mingtasi (10,8 %) Farg'ona viloyatiga va 7,5 mingtasi (10,7 %) Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1-dekabr holatiga)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida Respublikada 18 466 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 52,8 foizi Toshkent shahri, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Andijon viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1-dekabr holatiga)



Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: (71) 230-80-46